

## **“NKMK” AJda 2025-yilda aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari va ularni bartaraf etish uchun amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha**

### **MA’LUMOT**

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuniga, shuningdek “NKMK” AJ Kuzatuv Kengashining 2024-yil 7-iyundagi 4-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibiga solish to‘g‘risida”gi Nizomga asosan Komplayens xizmati tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish borasida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan 2024 yil yakuni bilan Jamiyatning **5 499 nafar** boshqaruv xodimlari tomonidan taqdim etilgan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar tahlil qilindi.

Natijada, jami **95 ta** manfaatlar to‘qnashuvi holatlari, shundan, 25 ta mavjud va 70 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlandi.

Aniqlangan barcha manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bo‘yicha Komplayens xizmatining mas’ul xodimlari tomonidan tegishli Odob-axloq komissiyalariga belgilangan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqilib, bartaraf etish bo‘yicha taqdimnomalar kiritildi.

Hozirga qadar, aniqlangan (**95 ta**) manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining **3 ta mavjud** hamda **70 ta** ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bo‘yicha tegishli tartibda qarorlar qabul qilinib, Chora-tadbirlar belgilandi. Qolgan 22 ta holatlarni bartaraf etish choralari ko‘rilmoxda.

Komplayens xizmati tomonidan kelgusida yuqorida aniqlangan barcha holatlari yuzasidan monitoring va o‘rganishlarni davom ettirib, tegishli choralarini ko‘rib borilishi ma’lum qilinadi.